

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TAFAKKURINI IJODIY O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Husanova Hilola Akmal qizi

Xalqaro innovatsion universiteti 2 kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 3 – 7 yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk shahslar etib tarbiyalashda va ularni qobiliyatlarini rivojlantirishda ijodiy o'yinlarning ahamiyati va bolalarga samarali ta'siri haqida so'z boradi . Shuningdek bolalarda yetakchi faoliyat o'yin ekanligini hisobga olgan holda ijodiy o'yinlarning samarali ta'siri yoritib beriladi . Shuningdek ijodiy o'yinlar orqali bolalar tafakkurini rivojlantirish bayon etilgan .*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim , o'yin yetakchi faoliyat ekanligi , ijodkorlikni qo'llab quvvatlash , ijodiy o'yinlar , samarali faoliyat .*

Annotation: *This article discusses the importance of creative games and their effective impact on raising 3 – 7 year old children as well rounded individuals and developing their abilities . It also highlights that play is the leading activity for children of this age . Furthermore , the development of children's thinking through creative games is described .*

Keywords: *Preschool education , play as a leading activity , creative games , effective activity .*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri har tomonlama rivojlangan , mustaqil va ijodiy fikrlaydigan shahsni shakllantirishdir .

Inson shahsining asosi maktabgacha yoshda qo'yilishini hisobga olgan holda bu davrda bolalarning tafakkurini ayniqsa ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi .

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning intellektual salohiyatini oshirishda an'anaviy usullardan ko'ra , o'yin texnologiyalaridan foydalanish samaraliroq hisoblanadi .

Chunki o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turi bo'lib , aynan ijodiy o'yinlar orqali bola dunyoni taniydi , mantiqiy bog'liqliklarni topadi va muammoli vaziyatlarda o'ziga hos yechimlar qidiradi.

O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim muassasalarida "Ilk qadam" dasturiga muvofiq mashg'ulotlar quruq yodlashga emas , balki bolaning qiziqishlariga asoslangan o'yin faoliyatiga qurilmoqda.

Ushbu islohotlarning bosh maqsadi bolani majburlash emas , balki ijodiy o'yinlar orqali uning ichki potensialini va erkin fikrlashini yuzaga chiqarishdir .

ASOSIY QISM : Maktabgacha yoshdagi bolalik davri inson hayotida shahsiyat va entelektual qobiliyatlarning poydevorida qo'yiladigan eng muhim bosqichdir . Taniqli

psiholog L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek , o'yin maktabgacha yoshdagi bolaning shunchaki vaqt o'tqazish vositasi emas , balki uning yetakchi faoliyat turidir .

Ijodiy o'yinlar oddiy o'yinlardan farqli ravishda boladan oldindan belgilangan qoidalarga qat'iy amal qilish emas . balki o'z tasavvuri , fantaziyasi va kreativligini ishga solishni talab qiladi . Bunday o'yinlar jarayonida bolaning miya yarim sharlari faol ishlaydi , nutq rivojlanadi va mustaqil qaror qabul qilish boshlanadi .

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruh honalari turli faoliyat markazlariga (san'at , qurish – konstruksiyalash , syujetli rolli o'yinlar , til va nutq) bo'lingan . Bu markazlar bolaga o'zi qiziqqan ijodiy o'yin turini erkin tanlash imkoniyatini beradi .

Ushbu markazlarni yaratishning maqsadi ijodiy o'yin muhitini yaratish orqali undagi tabiiy qobiliyatlarni uyg'otish va tafakkurni kengaytirishdir .

Tatqiqotlar shuni ko'rsatadiki , guruhda haftasiga kamida 3 – 4 marotaba tizimli ravishda ijodiy o'yinlar tashkil qilinganda , bolalarning intellektual ko'rsatgichlari va mantiqiy fikrlash darajasi an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda 25 va 30 foizga yuqori bo'ladi .

Ma'lumki bolalar tafakkuri ko'rgazmali –harakatli shakldan mantiqiy va ijodiy shaklga o'tadi . Ushbu davrda quyidagi ijodiy o'yin turlari eng yuqori samara beradi .

1. Syujetli rolli o'yinlar – bolalar hayotiy vaziyatlarni kasblarni ertaklar qahramonlarini tasvirlash orqali ijtimoiy ko'nikmalarni egallab boradilar . Rolli o'yinlar ijodiy fikrlashni , muloqot qobiliyatini , hamkorlikni rivojlantiradi . Bolalar teatrlashtirilgan o'yinlar orqali ertak va hikoyalardagi obrazlarni tushunib yetadilar .

2. Qurilish va konstruktiv o'yinlar – turli ashyolardan binolar yoki modellar yasash bolalarning fazoviy tafakkurini va mantiqiy fikrlashini charxlaydi . Bu jarayonda bolalarda muhandislik elementlari shakllanadi . Qurish yasashda ko'prik , minora , uycha , mashina , inshoot ,bino qurish mumkin . Qo'llaniladigan buyumlar yog'och va plastic kublar , leg ova konstruktor to'plamlari , qog'oz karton , tabiiy materiallar .

3. Tasviriy ijodiy o'yinlar – rasm chizish orqali bolalar o'z tassurotlari , hissiyotlari va dunyoni qanday idrok etishlarini ifodalaydilar . Bu faoliyat mayda motorikani , ko'z va qo'l koordinatsiyasini rivojlantirishga yordam beradi . Applikatsiya va qirqib yopishtirish faoliyati bolalarga turli materiallar va obrazlar bilan tanishish , ranglar va shakllarni tanish imkonini beradi . Loy va plastlin bilan ishlash jarayonida o'z qo'llari sezgilarini rivojlantiradilar , materiallar hususiyatlarini anglaydilar .

4. Musiqali ijodiy o'yinlar – kuylash , raqsga tushish va ritmgga mos harakatlar qilish bolaning estetik tarbiyasini shakllantiradi va ularda ritm tuyg'usini rivojlantiradi . Musiqiy ijodiy o'yinlardan „yomg'ir yog'aloq” , „oq terakmi ko'k terak” , „qushcha uchdi” , „qo'g'irchog'im” „ quvnoq doira”.Bolalar kuy va qo'shiqlarni tinglash tovushlarni farqlash va musiqiy asarlarning harakterini tafakkur qilish orqali musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar . Yakka va jamoaviy qo'shiq aytish orqali bolalar nafas olish texnikasini ovoz apparatini rivojlantiradilar va emotsional holatlarni ifoda etishni

o'rganadilar . Oddiy musiqiy asboblar bilan tanishish va ulardan foydalanish bolalarda ritm hissini , musiqiy eshitish qobiliyatini , barmoqlar harakatchanligini rivojlantiradi .

5.Nutq ijodiyoti – nutq ijodiyoti bolalarning til qobiliyatlarini rivojlantiradi , lug'at boyligini oshiradi . Bu faoliyat bolalarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otadi , tafakkur doirasini kengaytiradi . Bolalarga rasmlar , predmetlar yoki mavzularni taklif qilib ular asosida hikoya yoki ertak to'qishni so'rash mumkin . Bunday faoliyatlar guruh bilan yoki individual tarzda o'tkazilishi mumkin .

Metodik tavsiya: Tafakkurning yosh xususiyatlariga ko'ra o'sib borishi.Kichik yosh(3-4) bolada sensor o'rganish (shakl,rang,hajm)birinchi o'ringa chiqadi.Tafakkur asosan ihtiyorsiz harakterga ega bo'ladi.O'rta yosh(4-5)tafakkur yaqqol obrazli shaklga o'tadi.Bola buyumlarni guruhlashni , taqqoslashni va oddiy sabab oqibat aloqalarini tushunishni boshlaydi.Katta yosh (5-6-7)mantiqiy fikrlash va ixtiyoriy diqqat shakllanadi . Bolada elementar matematik tushunchalar hamda mustaqil tatqiqotchilik faoliyatiga qiziqish ortadi .

XULOSA

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy salohiyatini shakllantirish zamonaviy maktabgacha ta'lim pedagogikasining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi . mazkur tatqiqot ishi doirasida olib borilgan nazariy tahlillar va amaliy kuzatishlar natijasida quyidagi yakuniy ilmiy hulosaga kelindi .

Ijodiy faoliyat bolalar tafakkuri , tasavvuri va nutqini rivojlantiruvchi asosiy funksiyadir va nostandart fikrlash (kreativlik) ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

Maqolada asoslab berilganidek 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolada bilish sohasi faol rivojlanadi . Ijodiy o'yinlar orqali ta'lim jarayonini tashkil qilish bolani nafaqat intellektual , balki ijtimoiy – hissiy va ma'naviy jihatdan har tomonlama yetuk shahs bo'lib shakllanishida bevosita xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning tafakkurini tizimli rivojlantirish uchun o'yin texnologiyalaridan to'g'ri va yosh xususiyatlarida mos ravishda foydalanish talab etiladi.

Bugungi kun pedagogidan interfaol metodlarni egallash guruhda boyitilgan sensor va intellektual rivojlantiruvchi muhitni yaratish hamda har bir bolaga individual yondashish talab etiladi.

Shu sababli ishlab chiqilgan tavsiyalarni maktabgacha ta'lim tizimi amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Grosheva I.V , Djanpeisova G.E. va boshqalar .(2020) . O'yin orqali ta'lim olish . Toshkent.

2. G'ulomova A.(2019)Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish usullari. Toshkent.

3. Qodirova F.(2019) Tafakkur.

4. Norboyeva M.(2021) Bolalar psihologiyasi : Ijodiy rivojlanishning psihologik asoslari .

5. O'zbekiston Respublikasining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (2022 – yil nashri).

6. Qahramonovna , Q. M. (2021) . Theoretical Fundamentals of Inter – personal Relations. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences , 1(7),13-16.